

Malikaday Ulug‘Vor, Onaday Mehrli

*Iroda Asatjanova Maqsudbek qizi*¹

Anatatsiya: Ushbu maqolada yorqin rassom, o‘quvchi qalbini his qila oladigan munis ayol, yurti, Vatani uchun qadrlil ulug‘vor qalb egasi, yelkasiga tog‘dek yukni ortgan buyuk Sharq ayoli Zulfiyaxonimning she‘riyatida qo‘llangan yurtga, onaga, tabiatga bo‘lgan badiiy qiyoslar tahlilga tortilgan. Shu bilan birga, Zulfiya bilan zamondosh o‘zbek shoirasi, o‘tkir zehn va ko‘ngil mulki sohibasi, xalqiga, eliga onaday mehrli va mahjub o‘rtoq – Oydin Hojiyevaning ham huddi shu mavzuga mansub she‘rlari qiyos usulida tahlilga tortildi. Maqolada she‘riy obrazlarning turli xil turini uchratamiz.

Kalit so‘zlar: badiiy qiyoslar, peyzaj, she‘riy obrazlar, ruhiyat manzaralari, lirik qahramon.

Yorqin rassom, o‘quvchi qalbini his qila oladigan munis ayol, yurti, Vatani uchun qadrlil ulug‘vor qalb egasi, yelkasiga tog‘dek yukni ortgan buyuk Sharq ayoli – Zulfiyaxonim. “She‘riyat olamig har bir ijodkor o‘z qo‘shig‘i bilan kirib keladi. Zulfiya she‘riyatga vafo qo‘shig‘i bilan kirdi. Va bu qo‘shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi.”²

Zulfiya bilan zamondosh o‘zbek shoirasi, o‘tkir zehn va ko‘ngil mulki sohibasi, xalqiga, eliga onaday mehrli va mahjub o‘rtoq – Oydin Hojiyeva. “U zamonaviy o‘zbek adabiyotiga buxorocho nafasni olib kirdi – uning she‘rlari ham boshqa shoirlarnig lirikasi kabi insonga, inson dardlari va sevinchlariga, hasratlarga bag‘ishlangan, u hamison ruhiyatining va birinchi navbatda, XX asr o‘rtalarida yashagan o‘zbek ayolining ruhiyat manzaralarini chizadi.”³

Bu ikki o‘zbek ijodkorining qarashlari, orzu-o‘ylari, intilishlari, ijodidagi mutanosibliklar, izhor shakllari deyarli bir-biriga o‘xshash. Bu ikki shoira so‘zlarni nafislik bilan, jimjimador bo‘yoqlarsiz, sodda, xalqona tilda berishi biz uchun juda tanish holat. Hatto ulardagi g‘oyaviy butunlik bizni hayratga soladi. Ular ona haqida kuylaydimi, Vatan haqida she‘r bitadimi, ayol obrazini ulug‘laydimi, tabiat go‘zalligi xususida jar soladimi – bularning barcha-barchasi juda go‘zal va mukammal tasvirlardir.

Sevaman oltin kuz! Sevaman jondan,

Atlas tabiatli go‘zal chog‘ingni.

Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun

Ko‘zni erkalagan chaman bog‘ingni.⁴

1943-yillarda yaratilgan Zulfiya qalamiga mansub ushbu she‘rda tabiat go‘zalligi chiroyli tasvirlar vositasida berilgan. Zukko shoiramiz xalqona ohanglarda tagdor ma‘nolarni ifodalagan. She‘rda shoira go‘zal tashbehlar-u, chiroyli o‘xshatishlardan, jonlantirishlardan unumli foydalangan. Uni bir o‘qishingiz bilanoq qaysidir misralari sizni rom qiladi-qo‘yadi. Go‘zal diyorimizning betakror tabiati, bag‘ri keng, dono, mehnatkash xalqimizning asrlk qadriyatlar she‘rda tilga olingan. Gavhar marjon kabi yaltirab turgan ilhom shoirani quyoshni qarshilab ayvonga chiqib she‘riy misralarni kutib olishga imkon yaratib beradi. Shoira bahorni ham sevadi, lekin shoiraning ilhomi – kuz. Kuz poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan mazkur parchada lirik qahramonning kayfiyati shodlik va xurramlikni akslantirmoqda. Hissiy bo‘yoqdorlik qabarib ko‘ringan ushbu she‘r mohiyatida lirik obraz – kuz tiynati mushohada sahniga olib chiqilgan.

She‘riyat borliqning go‘zalligiga munosabat yo‘sinida ko‘ngillarda mehr va muhabbat, oqibat va e‘tiqod fazilatlarini paydo qiladi. Borliqdan olingan ta‘sirlar va munosabatlar orqali ruhiyatga ishora aylaydi. Oydin Hojiyeva lolaqizg‘aldoq, yaproq, bahor, yulduz, chechak, xazon singari tabiat vositalarini yurakning tashbehlariga ko‘chiradiki, bular aksariyat takrorlanib kelgan holda yangi bir his shakliga kiradi. Birgina bahor tasvirida shoira Zulfiyaga monand tabiat go‘zalliklarini yuksaklik va betakrorlik vositasida e‘tirof aylaydi. Yalpizlarning yashil xatlarini, binafshaning mayin patlarini o‘pib quchishga tayyor bo‘lgan shoira uchun she‘riy hayol tog‘ yonbag‘irlarida kiyik misol o‘ynab yuradi:

Termulaman qorga bosh qo‘yib,

Qishga bandi yotgan bog‘larga.

Xayol degan ozod, hur kiyik

O‘ynab yurar bandi bog‘larda.⁵

¹ Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

² Vohidov Erkin. Shoiru, she‘ru shuur: Adabiy esselar. – T.: “Yosh gvardiya”, 1987. 78-bet.

³ Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – T.: “Sharq”, 2004. 617-bet.

⁴ Зулфия. Йиллар садоси. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1995. 91- бет.

Ma'lumki, "Lirika – inson qalbini, zamondoshimiz qalbini kashf etish, uning orzu va tuyg'ularini, muqarrar dramalarini idrok etish demakdir. Kishilarning ruhiy olami nechog'lik chuqur payqab va ilg'ab olinsa, she'riyat shu qadar boy va ta'sirchan bo'ladi. Lekin kashf etish fikr qilish, o'ylash demakdir. Hozirgi zamon she'riyatining mohiyati, rivojlanishining asosiy yo'nalishi ham ana shundadir"⁶

Ayolning qalbi juda nozik va shu noziklik qa'rida buyuklik mujassamdir. Ayol qalbining butun go'zalligini ayolgina yaxshi his qila oladi. Ayolning go'zalligi, uning mehr-u muhabbati haqida bir qancha shoirlar qalam tebratishgan. Lekin, ayol ijodkorlarimiz satridagi ayolning qalb kechinmalari o'zgacha jilvalangan. Oydin Hojiyeva ijodida ayollar, onalar, qizlar madhi ham yetakchi o'rinda turadi. Ularni ulug'lar, ularning e'zozlashga arzigulik sifatlarini namoyish qilish shoira ijodida ustuvor ahamiyat kasb etadi.:

Kun botar. Tovuqlar chiqar qo'ndoqqa,
Oqshom pari qizday silkitar ro'mol.
Bir etak bolasin jamlab quchoqda,
Qozonga o't yoqar tabarruk ayol...

Halovati, oromi yo'q mehnatkash va jafokash o'zbek ayoli... Bu so'z zamirida turfa ma'nolar izg'ib yuradi. Shoira ayolni ulug'laydi, tabarruk zot deya ta'riflaydi, uni ko'klarga ko'taradi. Qosh-ko'zida yobonning gardi, ko'ksida ming alam-dardi bo'lgan bu munisa hayot sinovlariyu azoblariga bardosh berib, saxiy tuproqni taqdir biladi. Qismatiga shak-shubhasiz rozi bo'ladi. Ijodkorning xayoli bilan yaratilgan va yaratgan ayol obrazini badiiy ijodning barcha janrlari va turlarida topish mumkin. Bu ijod badiiy olam mahsulidir. Aynan ayol ijodkor tomonidan yaratilgan ayol obrazi, uning qalb kechinmalari o'zgacha. "Shoira hech qachon bu ayollarni hasrat qilayotganda ko'rmaydi, shoira ayolning jamiyat va oiladagi mashaqqatli turmush tarzini o'zining lirik asarlarida matonat bilan tarannum eta oldi"⁷

Kim tanimas bizning onalarni,
Siz qaydan sezmayisiz issiq nafasini?
O'lehab bo'larmikin ona mehrini,
Tugatib bo'larmi aytib qissasini?

Shoira Zulfiyaning – "Bizning onalar" she'ri iliq, rohatbaxsh lirizm bilan sug'orilgan. Shoira ushbu she'rida ona qalbining go'zalligini onalikni his qilib tasvirlay olgandir. Uning mehri va muhabbatining betakrorligini o'z qalbidan his qilib qog'ozga tushirgan.

Baxt qasriga kirib, meni topdi dard,
Urush yozda yoqqan qor kabi o'lim.
O'ttizga yetmayoq sochim qor yalab,
Ko'zyoshim soyiga to'kildi gulim.

Zulfiya qismatning shafqatsiz sinovlarida irodasini hayot oqimlariga topshirmadi, mahzunlikka berilmadi. Balki hayotdan erta ketgan ukasi, nohaq o'limga mahkum etilgan akasi, sevimli yori, tuzum qabohatlardan ozor topgan ota-onasi, farzandlari, xalqi uchun, qolaversa, adabiyot – she'riyat, haqiqat uchun barcha g'am-anduhlarni yengishga, undan ustun chiqishga intildi, "Irodali qalb nimalarga qodir ekanligini namoyon qilish bilan insoniylikdansa boq beradi, vafolik timsoliga aylanadi."⁸

Vatan – uni tarannum etmagan, kuylamagan ijodkor topilmasa kerak. Chunki ijodkor uchun o'zi tug'ilib o'sgan maskani – Vatanini kuylashdek zavqli va sharfli baxt bo'lmaydi. Vatan mavzusida yozilgan asarlarning tub mohiyati bir bo'lsada, lekin ularning hech biri bir-biriga o'xshamaydi. Shu o'rinda Oydin Hojiyeva ijodida asosiy o'rinlarda turuvchi Vatan mavzusidagi she'rlar o'zgacha ohang va takrorlanmas misralarda jo bo'lganligi bois ulardagi obraz yorqin va ta'sirchan deyishimiz mumkin. Ijodkor Vatan mavzusiga qayta-qayta murojaat qiladi:

Vatan borliq hayotim, senga jonim sadag'a,
Har g'ishtida jon ipi honumonim sadag'a.
Dashtlardagi ermonim, adrasmonim sadag'a,
Hech kimdan kam emasmiz, aslo qaram bo'lasmiz!

Haqiqiy vatanparvar inson o'zi tug'ilib o'sgan joyning xalqini, yurtini, odamlarini hatto g'ishtini bor-yo'g'i bilan sevadi. Shoir Vataniga shunday muhabbatini ko'rsatadi. Qalbining tub-tubidagi tuyg'ularini o'z misralarida namoyon qiladi.

⁵ Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. – T.: "Sharq";, 2010-yil. 43.

⁶ Zulfiya. Adabiy o'ylar. T.: "Fan" nashriyoti. 1985. 23-bet

⁷ Asatjanova Iroda. Oydin Hojiyeva badiiyati. Urganch: "Xorazm yoshlari". 60-bet

⁸ Karimov Hakimjon. Istiqloq davri adabiyoti. – T.: "Yangi nashr". 2010. 79-bet.

Shoiraning qalb qo‘ridan chiqqan so‘zlarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, Vatan uchun shoirani joni, honumoni, adrasmoni, ermoni sadag‘a.

Go‘dak tushunchamda Vatan deb bildim,
Ko‘zni qamashtirgan ko‘m-ko‘k bog‘ingni.
Ko‘rganda qirg‘oqdan ketolmay qoldim,
Oyga ko‘zgu bo‘lgan sof bulog‘ingni.
Faqat seni dedim qalb qo‘shig‘ini,
Ey aziz Vatanim, atadim senga.
Sen hur bo‘lganing-chun nafasim hurdir,
Hayotim lazzati, baxt yordir senga.

Zulfiya qalamiga mansub ushbu she‘rda ijodkor Vatanimizning o‘tmishi, bugungi kunini odamlar to‘g‘ri tasavvur etishi, har bir kishi yurti ravnaqi uchun chin dildan fidoyi bo‘lishini istaydi. Shoir Vatan to‘g‘risidagi she‘rlarida chinakamiga dilini ochadi, o‘zini o‘ylantirgan muammolarni insonning asl qiyofasini ko‘rsatadigan ma‘naviyat bilan bog‘laydi. Shoiraning ijodi xuddi shu jihati bilan e‘tiborni tortadi.

Bu ikkita shoira bu hayotdan ketdi. Lekin ularning so‘zi, sozi qoldi. O‘zi hayot shunaqa – shoirming hayotda bor-yo‘qligidan qat‘iy nazar, so‘zlari minglab, o‘n minglab dillarga goh dalda, goh tug‘yon, goh charog‘onlik olib kelaveradi. So‘z sehridan quvvat olgan ko‘ngillar esa o‘z yurtini yanada nurafshon qilishda, o‘z xalqini yanada ardoqlashda kishilarga yangi kuch va sabot bag‘ishlaydi, Shoir va shoiralikning o‘xshashsiz saodati, cheksiz muhabbati, she‘riyatning esa hadsiz mo‘tabarligi ana shunda bo‘lsa ajab emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vohidov Erkin. Shoiru, she‘ru shuur: Adabiy esselar. – T.: “Yosh gvardiya”, 1987.
2. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – T.: “Sharq”, 2004.
3. Зулфия. Ёиллар садоси. – Тошкент: “Адабиёт ва санъат” нашриёти. 1995.
4. Hojiyeva Oydin. Shom shu‘lalari. – T.: “Sharq”, 2010-yil.
5. Zulfiya. Adabiy o‘ylar. T.: “Fan” nashriyoti. 1985.
6. Asatjanova Iroda. Oydin Hojiyeva badiiyati. Urganch: “Xorazm yoshlari”.
7. Karimov Hakimjon. Istiqlol davri adabiyoti. – T.: “Yangi nashr”. 2010.